

## Olimpiya shon-shuhrati muzeyiga tashrif

✘ Bugun 20-fevral “Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” fakulteti “Suv xo’jaligi va meliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” yo’nalishi 201 va 204-guruh talabalari guruh murabbiylari boshchiligida Respublika Olimpiya shon-shuhrati muzeyiga tashrif buyurishdi.

Ushbu tashrif davomida institutimiz talabalari 1996-yilda O’zbekistonda birinchi marta tashkil etilgan Respublika Olimpiya shon-shuhrati muzeyi bilan to’liq tanishib chiqishdi. Ushbu muzey dunyodagi mavjud 5 ta Olimpiya shon-shuhrati muzeylaridan biri bo’lib, Xalqaro Olimpiya Qo’mitasining Lozannadagi Olimpiya muzeyi bilan o’zaro bitimga ega. U o’zida 1990-yildan beri o’tqazib kelinayotgan Olimpiya va Parolimpiya o’yinlari sovrinlari va esdalik sovg’alarini jamlagan. Talabalarga biriktirilgan muzey xodimasi talabalar savollariga to’liq javob berdi va tashrif talabalarda katta taassurot qoldirdi.

Bu muzeyga tashrif uyushtirishda bizga yaqindan yordam bergan Respublika Olimpiya shon-shuhrati muzeyiga va institutimiz rahbariyatiga alohida minnatdorchilik bildiramiz!

GIM kafedrası assistenti I.Turdibekov axboroti  
Institut matbuot xizmati rahbari R. Jumaniyozov